

**MAMLAKATIMIZDA INSON HUQULARINI
TA`MINLASHNING SAMARALI MEXANIZMLARI**

*Kudaynazarov Jaxongir Kuatbay o`g`li
QDU Yuridika fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada inson huquqlari haqida, inson huquqlariga nimalar kirishi, mamlakatimizda inson huquqlarini ta`minlash borasida olib borilayotgan islohotlar, chiqarilayotgan qarorlar haqida nazariy ma`lumotlar berilgan, tahlil qilingan.

Kalit so`zlar: inson, huqur, erkinlik, mexanizm, kostitutsiya, qonun.

Inson huquqlari – bu insonning tug`ilishidan to vafot etguniga qadar butun umri davomida unga hamrohlik qiladigan huquq va erkinliklardir. Ushbu universal huquqlar millati, jinsi, irqi yoki etnik kelib chiqishi, rangi, dini, tili yoki boshqa huquqiy maqomidan qat`i nazar, hech qanday kamsitishlarsiz barcha uchun xosdir. Inson huquqlari yashash huquqi kabi eng asosiy huquqlardan tortib, munosib turmush tarzini ta`minlashga xizmat qiladigan ta`lim olish, mehnat qilish yoki ijtimoiy ta`minot olish kabi huquqlariga qadar barcha huquqlarni qamrab oladi.

Inson huquqlari – insonning davlat bilan munosabatidagi huquqiy maqomini, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va madaniy sohalardagi imkoniyatlari hamda da`volarini tavsiflovchi tushuncha. Inson huquqlarini erkin va samarali tarzda amalga oshirish fuqarolik jamiyati va huquqiy davlatning asosiy belgilaridan biridir. Inson huquqlarini mutlaq va nisbiy Inson huquqlariga bo`lish qabul qilingan. Yashash huquqi, qiynoklarga, zo`ravonlikka, inson sha`nini yerga uradigan boshqa xil muomalaga yoki jazoga duchor etilmaslik huquqi, shaxsiy hayotning daxlsizligi huquqi, shaxsiy va oilaviy sir saqlash huquqi, o`z sha`ni hamda yaxshi nomini himoya etish huquqi, vijdon erkinligi va dinga e`tiqod qilish huquqi, shuningdek, sud tomonidan himoya qilinish va odil sudlov huquqi hamda shular bilan bog`liq eng muhim protsessual huquqlar mutlaq inson huquqlari sirasiga kiradi. Qolgan hamma inson huquqlari nisbiy bo`lib, favqulodda yoki harbiy holat tartibi joriy qilingan vaziyatda cheklab yoki to`xtatib qo`yilishi mumkin. Demokratik davlatda mutlaq Inson huquqlarini har qanday vaziyatda ham cheklashga yoki vaqtincha to`xtatishga (bekor qilishga) yo`l qo`yilmaydi.

O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari, jumladan, shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy huquqlari, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, shuningdek, inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlari belgilab berilgan O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprel kuni o`tkazilgan O`zbekiston Respublikasi referendumida

umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahririda ham inson huquqlari va erkinliklariga alohida urg'u berilgan.

Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. **25-modda.**

Bundan tashqari mamlakatimizda jamiyatning juda ko'p sohaları qatori, inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasida ham juda keng qamrovli demokratik o'zgarishlar ro'y bermoqda. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tashkil etilgan Prezidentning Xalq va Virtual qabulxonaları faoliyatining yo'lga qo'yilishi bu borada muhim qadam bo'ldi. Bu chora-tadbirlar "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan insonparvarlik tamoyilini to'la ro'yobga chiqarishda muhim omil bo'lmoqda. Mamlakatimizda inson huquqlariga rioya qilish va uni himoya qilishning milliy mexanizmlari ham takomillashib bormoqda. Oliy Majlisning inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) va Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi bilan birga Bola huquqlari bo'yicha vakil va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil kabi yangi lavozimlar joriy etildi.

Aholining yordamga muhtoj barcha oilalar va shaxslarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha milliy strategiya ishlab chiqildi. Uning doirasida ijtimoiy yordamga muhtoj fuqarolar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasi yaratilib, barcha «daftarlar» ijtimoiy himoya yagona reyestriga birlashtiriladi. Shuningdek, kam ta'minlangan oilalarning 3 yoshgacha bo'lgan bolalari uchun oziq-ovqat mahsulotlari hamda dori-darmonlar berish dasturi qabul qilinadi. So'nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining (keyingi o'rinlarda — BMT) 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmini yanada takomillashtirish maqsadida 2020-yil 22-iyunda "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-6012-son O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni chiqarilishi yana bir muhim qadam bo'ldi. Mamlakatimizda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash yuzasidan olib borilayotgan islohotlar dunyo hamjamiyati tomonidan munosib e'tirof etilmoqda.

Xulosa sifatida aytish kerakki, yurtimizda kechayotgan ulkan islohotlar va yangilanishlar davrida inson huquqlarini himoya qilish eng ustuvor vazifalardan biriga aylangani O'zbekistonda demokratik islohotlar ortga qaytmas jarayon ekanining yaqqol ifodasidir. Bu borada BMT hamda boshqa xalqaro tuzilmalar bilan faol hamkorlikni yanada kengaytirish esa, albatta, davlatimizning milliy manfaatlariga xizmat qiladi.